

## Badiiy tarjima va bu jarayonda yuzaga keluvchi muammolar

Fayzulloeva Mashhura

NDPI magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tarjima turlari, xususan, badiiy asarlar tarjimasi va bu jarayonda duch kelinishi mumkin bo‘lgan ayrim muammolar haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** tarjima va uning turlari, badiiy tarjima, ritorik vositalar, atoqli otlar, terminologiya, manba til madaniyati.

Tarjima — bu muayyan tildagi hujjatlar, matnlar, qo‘lyozmalar, badiiy asarlardan tortib, maqol va iboralargacha bo‘lgan til birliklarini yangi bir tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Tarjima millatlararo muloqotning eng muhim ko‘rinishlaridan hisoblanadi. Eng qadimgi jamoalar davridayoq kishilar orasidagi o‘zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli tarjima jarayoni yuzaga kelgan va bugunga qadar bu soha o‘z taraqqiyoti davomida sayqallanib, hayotimizning turli jabhalarida o‘zining beqiyos o‘rni va ahamiyatini kasb etib ulgurdi.

“Tarjima” tushunchasi ma‘lum matn yoki asarni bir tildan ikkinchi tilga o‘girish jarayonini, shuningdek, tayyor tarjima asarini anglatadi. XX asr o‘zbek yozuvchilaridan Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Shayxzoda, Mirzakalon Ismoilov, Asqad Muxtor, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va boshqalar tarjima sohasida barakali ijod qilishgan. Tarjimaning aynan badiiy tarjima sohasid M.Osim, N.Alimuhamedov, Sh. Shomuhamedov, K. Qaxdorova, O. Sharopov, Sh. Tolipov, V. Ro‘zimatov, Q.Mirmuhamedov, A.Rashidov, M.Hakimov, I.G‘afurov, M. Mirzoidov, T. Alimov va boshqalar professional tarjimon sifatida tanilganlar.

Bugungi kunda tarjimaning quyidagi turlari farqlanadi:

1. Ketma-ket tarjima
2. Vizual tarjima
3. Sinxron tarjima

**Ketma-ket tarjima qilish** bu bir tilda og‘zaki axborot berilgandan so‘ng uni boshqa tilga tarjima qilishdir. Tarjimon so‘zlovchining umumiy fikrlari yoki eng kamida asosiy aytilgan gaplarni tinglaydi va so‘ng tinglash chog‘ida yozib olingan

eslatmalar yordamida nutqni tarjima qiladi. Tarjimon soʻzlovchi nomida asliyatdan boshqa tilga ketma-ketlikda tarjima qilib boradi.

**Vizual tarjima.** Vizual tarjima qilish deb bir tilda yozilgan matnni boshqa tilga tarjima qilib oʻqishga aytiladi. Baʼzi tarjimonlar vizual tarjima qilishdan oldin oʻsha nutqning yozma shaklini koʻrib chiqadi. Tarjima qilish uchun ajratilgan joyda, matnni koʻrib, tarjima qilish, yozma matnni oʻqish kabi emas, balki ogʻzaki nutq singari eshitilishi kerak. Tarjimaning buturi boʻlajak tarjimonlarni tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Vizual tarjima qilish boshqa tarjima turlariga qaraganda osonroq. Biroq, vizual tarjima qilishga qoʻshimcha sifatida tarjimon soʻzlovchi yozma matndan tashqariga chiqmayotganiga amin boʻlishi kerak.

**Sinxron tarjimada** tarjimon tarjima qilish uchun belgilangan joyda oʻtiradi va quloq eshitgich orqali soʻzlovchini tinglaydi. Soʻng tinglash chogʻida mikrofon orqali tarjima qiladi. Konferensiya xonasidagi delegatlar asosiy tilni quloqchinlar orqali tinglashadi. Sinxron tarjima imo-ishoralar orqali (kar va soqovlar uchun) ham bajarilishi mumkin. Soʻzlangan tildan imo-ishora tiliga tarjima qilinadi. Imo-ishorada tarjimonlar ular uchun belgilangan joylarda oʻtirishmaydi, ular soʻzlovchini koʻra oladigan va boshqa qatnashchilarga koʻrina oladigan konferensiya xonasida turishadi.

Badiiy tarjima oʻz nomidan koʻrinib turibdiki, romanlar, hikoyalar, sheʼrlar, bir soʻz bilan aytganda, barcha turdagi nasriy va nazmiy adabiy asarlarni tarjima qilishga qaratilgan. Gomer va Sofoklni maktabda klassik taʼlimning bir qismi sifatida oʻqish tarix, siyosat, falsafa va yana boshqa koʻplab fan sohalarini tushunishga yordam bersa, zamonaviy tarjimalarni oʻqish turfa xalqlar madaniyati, turmush tarzi, urf-odatlar, hayot falsafasi va qarashlari, qolaversa, shu mamlakat tabiati va boshqa oʻziga xosliklari haqida ajoyib taassurotlar uygʻotadi. Professional tarjimaning bu sohasi boshqa sohalarga nisbatan yuqori darajadagi ijodkorlikni talab qiladi. Boshqacha qilib aytganda, qoʻllanmani tarjima qilish roman yoki sheʼr kabi ijodkorlikni talab qilmaydi. Badiiy tarjima nasr yoki sheʼriyatni bir tildan boshqa tilga olib oʻtish sanʼatidir. Biroq, suhbatlar yoki rasmiy hujjatlarni tarjima qilishning texnik tabiatidan farqli oʻlaroq, adabiy asarni tarjima qilish har ikki tilda ham katta mulohaza va kuchli lingvistik qobiliyatni talab qiladi. Xorijiy tildagi adabiyotlar tasavvurimizni turli gʻoyalar bilan boyitibgina qolmasdan, turli adabiy janrlar bilan tanishish va hikoya qilish mahoratining xilma-xilligini ham doimiy ravishda oshiradi. Darhaqiqat, Fyodor Dostoyevskiyning realistik-psixanalitik durdona

asarlari, Gabriel Garsia Markesning sehrli realistik ertaklari yoki Yelena Ferrantening insoniy munosabatlar haqidagi betakror fikrlarisiz dunyoni tasavvur qilish mahol. O‘quvchida chuqur taassurot qoldiruvchi, uni fikrlar ummoniga g‘arq qiluvchi va dunyoqarashni mislsiz kengaytirishga imkon beruvchi jahon adabiyotining bu beqiyos durdonalari mohir tarjimonlarimizning zahmatli mehnatlari tufayli dunyoga kelgan badiiy tarjimalarsiz sharq o‘quvchisi, xususan, o‘zbek kitobxonlariga yetib kelmas, kelganda ham biz ularga yashirilgan ma’naviy xazinadan bahramand bo‘lolmas edik. Aynan adabiy tarjimonlar bebaho tarjimalari orqali bu bo‘shliq yuzaga kelishini bartaraf etadilar va turli xalqlar mualliflarini butun dunyo bo‘ylab yangi o‘quvchilar guruhlarini bilan bog‘laydilar. Tarjimada adabiyotning asl tilidagi nyuanslaridan tarjima tilida to‘g‘ri foydalanish va ularni mahorat bilan qo‘llay bilish tarjimondan puxta lingvistik ko‘nikma va kuchli madaniy bilimga ega bo‘lishni talab qiladi. Tarjimon asar g‘oyasi va muallifning yozish uslubini tushungan holda bularning barchasini boshqa tilda sinchkovlik bilan takrorlash yo‘lini topishi kerak bo‘ladi.

Badiiy matnlarni tarjima qilishda eng qiyin muammolardan biri bu xalqlar madaniyati o‘rtasidagi farqni kitobxonga yetkazib berish hisoblanadi. Tarjima jarayonida tarjimondan bir millatga doir xususiyatlarni boshqa tilda berishda katta mahorat va so‘z boyligi talab qilinadi.

Badiiy tarjimaning yana bir asosiy muammolaridan biri asl asarga sodiq qolish va asar asliyatidan olinuvchi his-tuyg‘u va kechinmalarni tarjimoni o‘quvchi kitobxonga aynan yetkazish, shakl va mazmun birligini saqlab qolish sanaladi. Bu she’riy asar tarjimasida ayniqsa qiyin va dolzarb hisoblanadi. Bir qarashda bunday ko‘rinmasa-da, tarjimaning bu sohasi juda murakkab va badiiy tarjimonga juda ko‘p qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

Ritorik vositalar va so‘z o‘yinlari. Ular she’riyatda ko‘proq uchraydi, lekin har qanday matnda uchrashi mumkin. Ba’zida tarjima tilida haqiqiy ekvivalent mavjud emas va shuning uchun tarjimon eng yaxshi alternativani topa bilishi kerak.

Atoqli otlar. Joylar yoki odamlarning nomlari ba’zan asl tilda biror narsani anglatishi va alohida ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Bunday holda, tarjimon nomlarni tarjima qilish yoki tarjima qilmaslik haqida o‘ylashi kerak.

Terminologiya. Ilmiy fantastika kabi ba’zi janrlarda tarjimon asarni tushunish va to‘g‘ri tarjima qilish uchun bilishi kerak bo‘lgan juda aniq va murakkab

terminologiyadan foydalanadi. Bu o‘rinda sohaga oid atamalarni bilishning ahamiyati yaqqol yuzaga chiqadi.

Xulosa o‘rnida Plexanovning tarjima jarayonida diqqat qaratish lozim deb hisoblagan uch asosiy shartni keltirib o‘tsak:

1. Asar qaysi tilda yozilgan bo‘lsa, o‘sha tilni mukammal bilish;
2. Asar qaysi tilga tarjima qilinayotgan bo‘lsa, o‘sha tilni mukammal bilish;
3. Tarjima qilinayotgan asarda qanday predmet to‘g‘risida gap borsa, o‘sha predmetdan xabardor bo‘lish.

Shunday qilib, tarjimon asar tarjimasiga kirishishdan avval yuqoridagi shartlarni muvofiqlashtirish orqaligina kitobxonga estetik zavq va ma‘naviy ozuqa bo‘luvchi ijod mahsulini yarata oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ochilov E. Badiiy tarjima masalalari (o‘quv qo‘llanma). – T., 2014.
2. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: “Fan”, 2005.
3. Ochilov E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (o‘quv qo‘llanma). – T., 2012.
4. Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari (Monografiya). – Toshkent: “Mumtoz so‘z”, 2011.
5. Tarjima masalalari (Ilmiy maqolalar to‘plami). – T.: Sharqshunoslik institute, 2012.
6. [https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy\\_tarjimaning\\_ba'zi\\_muammolari](https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy_tarjimaning_ba'zi_muammolari).
7. <https://zenodo.org/record/5812779> tarjimada so‘z tanlash masalasi yoki badiiy tarjimadagi muammolar.

# Research Science and Innovation House